XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 24 - may 298-12-180-Q/24 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahridagi maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 47-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi nizomining 39-bandiga asosan shaharda yangi qurilgan massivlar va mahallalar tashkil qilinganligini inobatga olgan holda, shaharda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 25-moddalarini qo‘llab:

Qaror qilaman:

1. Davlat kadastr palatasi Urganch shahar filiali tomonidan kiritilgan Urganch shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Urganch shahridagi ta’lim rus tilida olib boriladigan 3,10,15,28,30-sonli maktablarga shahardagi barcha hududlardan rusiyzabon o‘quvchilarning kelishini, ushbu maktablarda 1-sinfga qabul rus tilini bilish darajasi bo‘yicha amalga oshirilishini inobatga olgan holda mikrohudud berkitilmasin.

3. Shahar hokimining o‘rinbosari A.Isakov, shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Marimov) shahardagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Shahardagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim maktablariga jalb etishga shaxsan mas’ul ekanliklari ushbu qaror bilan belgilab qo‘yilsin.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Urganch shahar bo‘limi boshlig‘i (S.Yakubov) mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida shahar xalq ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim maktablari rahbarlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

6. Ushbu qaror kuchga kirishi munosabati bilan shahar hokimining 2023-yil 3-apreldagi 138-12-180-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari (B.Xudayberganov)ga:

-mazkur qarorni www.regulation.gov.uz saytiga joylashtirsin;

-shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyatini aholiga tushuntirish ishlarini olib borsin.

8. Ushbu qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Isakov zimmasiga yuklatilsin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2024-yil 24-maydagi
298-12-180-Q/24-son qaroriga
1-ilova


Хоразм вилоятида 2024-2025 ўқув йилида болаларни 1-синфга онлайн шаклда қабул қиладиган умумий ўрта таълим мактаблари рўйхати

Т/р	Шаҳар номи	Жами мактаблар	Онлайн ташкил қилинадиган мактаблар	Онлайн ташкил этилмайдиган мактаблар	Изоҳ *(онлайн қабул ташкил этилмаслик сабаби)*
Jami		**35**	**29**	**6**	**#ЗНАЧ!**
1	Урганч шаҳар	1-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
2	Урганч шаҳар	2-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
3	Урганч шаҳар	3-АФЧЎСМУЎТМ	1	0	
4	Урганч шаҳар	4-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
5	Урганч шаҳар	5-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
6	Урганч шаҳар	6-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
7	Урганч шаҳар	7-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
8	Урганч шаҳар	8-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
9	Урганч шаҳар	9-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
10	Урганч шаҳар	10-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
11	Урганч шаҳар	11-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
12	Урганч шаҳар	12-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	

13	Урганч шаҳар	13-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
14	Урганч шаҳар	14-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
15	Урганч шаҳар	15-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
16	Урганч шаҳар	16-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
17	Урганч шаҳар	17-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
18	Урганч шаҳар	18-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
19	Урганч шаҳар	19-АФЧЎСМУЎТМ	1	0	
20	Урганч шаҳар	21-АФЧЎСМУЎТМ	1	0	
21	Урганч шаҳар	22-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
22	Урганч шаҳар	23-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
23	Урганч шаҳар	24-АФЧЎСМУЎТМ	1	0	
24	Урганч шаҳар	25-АФЧЎСМУЎТМ	1	0	
25	Урганч шаҳар	26-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
26	Урганч шаҳар	28-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
27	Урганч шаҳар	29-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
28	Урганч шаҳар	30-АФЧЎСМУЎТМ	1	0	
29	Урганч шаҳар	31-сонли умумий ўрта таълим мактаби	1	0	
30	Урганч шаҳар	6-АФЧЎСМУЎТМИ	0	1	таълим 7-11-синф дорасида олиб борилади
31	Урганч шаҳар	8-АФЧЎСМУЎТМИ	0	1	таълим 7-11-синф дорасида олиб борилади

32	Урганч шаҳар	АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ЗАИФ ЭШИТУВЧИ БОЛАЛАР УЧУН ИХТИСОСЛАШТИРИЛГАН 32-СОНЛИ МАКТАБ-ИНТЕРНАТИ	0	1	касаллик тури бўйича фаолият олиб борадиган махсус мактаб интернат
33	Урганч шаҳар	Урганч шаҳар 93-сонли санаторий туридаги ихтисослаштирилган мактаб-интернат	0	1	касаллик тури бўйича фаолият олиб борадиган махсус мактаб интернат
34	Урганч шаҳар	Урганч шаҳар 94-сонли санаторий туридаги ихтисослаштирилган мактаб-интернат	0	1	касаллик тури бўйича фаолият олиб борадиган махсус мактаб интернат
35	Урганч шаҳар	АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН КАР БОЛАЛАР УЧУН ИХТИСОСЛАШТИРИЛГАН 96-СОНЛИ МАКТАБ-ИНТЕРНАТИ	0	1	касаллик тури бўйича фаолият олиб борадиган махсус мактаб интернат

Urganch shahar hokimining
2024-yil 24-maydagi
298-12-180-Q/24-son qaroriga
2-ilova







___ _____

___ _____

___ _____.

___ _____







